

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02
RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

XONIMQULOV JAMOLIDDIN ASATULLA O'G'LI

**SHPINEL STRUKTURALI KERAMIK PIGMENTLAR SINTEZI,
XOSSALARI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI**

02.00.15- Silikat va qiyin eriydigan nometall materiallar texnologiyasi

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)

Xonimqulov Jamoliddin Asatulla o‘g‘li Shpinel strukturali keramik pigmentlar sintezi, xossalari va funksional xususiyatlari.....	3
Хонимкулов Жамолиддин Асатулла угли Синтез, свойства и функциональные характеристики керамических пигментов шпинельной структуры.....	21
Khonimkulov Jamoliddin Asatulla ugli Synthesis, properties and functional characteristics of spinel structured ceramic pigments	39
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works	43

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02
RAQAMLI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

XONIMQULOV JAMOLIDDIN ASATULLA O'G'LI

**SHPINEL STRUKTURALI KERAMIK PIGMENTLAR SINTEZI,
XOSSALARI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI**

02.00.15- Silikat va qiyin eriydigan no metall materiallar texnologiyasi

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/K1019 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ionx.uz) va «ZiyoNET» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Qodirova Zulayxo Raimovna
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yunusov Mirjalil Yusupovich
Texnika fanlari doktori, professor

Daminova Shaxlo Sharipovna
kimyo fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya ishi himoyasi O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi DSc.02/05.05.2023.K/T.35.02 raqamli bir martalik Ilmiy kengashning «08» yanvar 2026 yil soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60; faks: (99871) 262-79-90; ye-mail: ionx@academy.uz).

Dissertatsiya ishi bilan Umumiy va noorganik kimyo institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 115 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60; faks: (+99871) 262-79-90

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «25» dekabr kuni tarqatildi.
(2025 yil «25» dekabrda 115- raqamli reestr bayonnomasi).



N.X. Usanbayev

Ilmiy daraja beruvshi bir martalik
ilmiy kengash raisi, t.f.d., prof.

J.S. Shukurov

Ilmiy darajalar beruvshi bir martalik
ilmiy kengash kotibi, t.f.d., prof.

Sh.S. Namazov

Ilmiy darajalar beruvshi bir martalik
ilmiy kengash qoshidagi bir martalik
ilmiy seminar raisi, t.f.d., prof., akademik

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda zamonaviy materialshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida yuqori haroratga chidamli shpinel strukturali keramik pigmentlarni sintez qilish, ularning faza hosil bo‘lish kinetikasi va mexanizmlarini chuqur tadqiq etish, mahalliy xomashyo hamda sanoat chiqindilaridan foydalanish orqali import o‘rnini bosuvchi pigmentlar ishlab chiqish bo‘yicha keng izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, keramik pigmentlar sintez qilishda mahalliy xomashyo va chiqindilardan foydalanish imkoniyatlarini asoslash muhim vazifalardan biridir. Shu bilan birga, yuqori haroratli pigmentlarning glazurlar tarkibida barqaror rang hosil qilishi va keramik buyumlarning estetik ko‘rsatkichlarini yaxshilash bo‘yicha tadqiqotlar xalqaro miqyosda dolzarb hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishda olib boriladigan izlanishlar yangi avlod keramik materiallar ishlab chiqarishning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirish, mahalliy xomashyo bazasini kengaytirish va “Yashil iqtisodiyot” talablariga mos texnologiyalarni yaratishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Jahonda yuqori haroratga chidamli shpinel strukturali keramik pigmentlarni sintez qilish, kuydirish jarayonidagi faza hosil bo‘lish kinetikasi va mexanizmlarini o‘rganish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, turli sintez usullari qo‘llanilganda keramik pigmentlar kristall fazalarining shakllanish jarayonlarini chuqur tahlil qilishga, temir tarkibli keramik pigmentlarning fizik-kimyoviy, fizik-texnik va funksional xossalarini tadqiq qilishga, kuydirish jarayonida temir oksidining xromofor sifatida rang hosil bo‘lishdagi ta’sir mexanizmlarini chuqur o‘rganishga, keramik pigmentlarning yorug‘likka, agressiv muhitga chidamliligi va yuqori haroratlardagi barqarorligini oshirishga, umuman olganda ularning funksional va estetik xossalarini yaxshilashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda tabiiy mineral va ikkilamchi xomashyolar, texnogen chiqindilar hamda kimyoviy reaktivlardan foydalanib turli xil ranglardagi keramik pigmentlar tarkibini ishlab chiqish, sintez qilish jarayonlarini tadqiq qilish va ularni keramik mahsulotlarni glazurlashda qo‘llash, shuningdek ularning funksional va estetik xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni Taraqqiyot strategiyasida “... noan’anaviy noruda xomashyo va ikkilamchi resurslarni jalb etish hisobiga xomashyo bazasini kengaytirish” va “Yashil iqtisodiyot”¹ doirasida turli sanoat chiqindilaridan foydalanib, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va joriy etishga qaratilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, mahalliy xomashyo komponentlari asosida yuqori haroratga chidamli, mustahkam shpinel strukturaga ega bo‘lgan keramik pigmentlar sintezi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-avgustdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158 son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son «2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonni Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida» gi Farmoni

to'g'risidagi PF-60 son va 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi PF-4947 son Farmonlari, shuningdek 2020-yil 12-avgustdagi "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-4805 son, 2019 yil 4-oktyabrdagi "2019-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasini tasdiqlash" to'g'risidagi PQ-4477-son qarorlari hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublikada fan va texnologiyalarni rivojlanishining VII "Kimyoviy texnologiya va nanotexnologiya" ustuvor yo'nalishiga muvofiq holda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Nashr etilgan ilmiy adabiyotlarda shpinel strukturali keramik pigmentlar sintezi, ularning fizik-mexanik va estetik xossalarini yaxshilashga qaratilgan ilmiy izlanishlar G.N.Maslennikova, V.Pishch, N.V.Sedelnikova, C.Zanelli, M.Ardit, G.Cruciani, L.F.Koroleva, W. Zhang, M. Bai, V.M.Pogrebenkov, Y. Youn, M. Gaudon, M. Hosseini-Zori, E. A. Chavarriaga, M.Dondi, M.Muthuraman, G.Kosta, S.Yaojing kabi olimlarning ishlarida keng yoritilgan. Shpinel strukturali keramik pigmentlarni zamonaviy usullarda jumladan zol gel usulida sintez qilish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar R. A. Candeia, C. S. Xavier, L.S.Ferreira, S.V.Motlounq, F.Dejene, H.C.Swart, O.M.Ntwaeaborwa, D.Zhang, Z.Q.Gong, Q.Shi, C.Li, R.A.Candeiaa, M.I.B.Bernardib, E.Longoc, D.L.Segal, P.J.White, M.E.Hadri, H.Ahamdane, I.Iraghni, T. Manfredini, F. Bondiolilar tomonidan, shuningdek shpinel strukturali keramik pigmentlarni qattiq fazali sintez usulida olish, tarkiblarini tuzish, xossalarini o'rganish bo'yicha A.E.Wahab, A.M. Hassan, A.M. Naser, V. Berbenni, V.P. Della, M.J. Ribeiro, G.George, L.S. Kumari, M.W.Borsoum, T.I.Dimitrov, A.V.Zaichuk, Y.K.Tzvetanova S.Kozhukharovlar tomonidan olib borilgan.

Respublikada mahalliy xomashyo resurslari asosida turli xil rangdagi keramik pigmentlar olish va polikomponent oksid sistemalarining fazaviy o'zaro munosabat diagrammalarini qurish bilan ularning kristall strukturalarini, faza hosil bo'lish jarayonlarini o'rganish bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu yo'nalish bo'yicha qattiq fazali reaksiya, suyuqlanmadan kristallanish, hamda zol-gel sintezi usullaridan foydalanib olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari N.A.Sirajiddinov, A.P.Irkaxadjaeva, A.A.Ismatov, R.I.Abdullayeva, A.M.Eminov, Z.R.Qodirova, J.I.Alimdjanova, Sh.Yu.Azimov, D.K.Adilov, F.G'.Xomidov va U.A.Kodirova kabi yetakchi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Ta'kidlash lozimki, tadqiqotlar natijasida ushbu yo'nalishda muayyan natijalarga erishilgan bo'lsada, mineral xomashyo va sanoat chiqindilari hamda turli sintez usullaridan foydalanib shpinel strukturali keramik pigmentlarni sintez qilishda kristall fazalari va rang hosil bo'lish kinetikasi va mexanizmini aniqlash, hamda «tarkib-struktura-disperslik-xossa» funksional bog'liqligiga haroratning ta'siri bo'yicha ishonchli va ilmiy asoslangan ma'lumotlar yetarli emas.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Qurilish va texnik maqsadlarda foydalaniladigan funksional va silikat materiallarning energiya va resurs tejovchi tarkib va texnologiyalarini ishlab chiqish" (2020-2024 yy.) budjet mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi shpinel strukturali keramik pigmentlarni qattiq fazali va zol-gel usulida sintez qilish, fizik-texnik xossalari va funksional xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

shpinel strukturali keramik pigment sintez qilish va temir tarkibli tabiiy rudalarni boyitish usullari bo'yicha mavjud ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish;

Qiziltosh gematit rudasi va "Xorazm shakar" AJ ishlab chiqarish chiqindisi "defekat" larning kimyoviy-mineralogik tarkiblari, fizik-kimyoviy xossalari aniqlash;

zol-gel usulida shpinel strukturali (CaFe_2O_4) keramik pigmentlarni past haroratda sintez qilishda kristall fazalar hosil bo'lish kinetikasi va mexanizmlarini, rang hosil bo'lish sharoitlarini tadqiq qilish;

Qiziltosh gematit rudasini boyitish usullarini tanlash va tarkibida temir oksidining miqdori yuqori bo'lgan konsentratini olish imkoniyatlarini asoslash;

qattiq fazali usul orqali shpinel strukturali keramik pigment sintez qilishda kimyoviy reagentlar o'rniga gematit konsentratini, defekat va mineralizator sifatida bor oksidi (B_2O_3) ishlatish orqali funksional va estetik xususiyatlarini boshqarish imkoniyatlarini aniqlash;

shpinel strukturali keramik pigment namunasining sintez haroratiga, rangi va fizik-texnik xususiyatlariga, gematit konsentratini, defekat, hamda bor va xromofor oksidlarining ta'sirini aniqlash;

gematit konsentratini va defekat asosida sintez qilingan shpinel strukturali pigmentlarning fizik-kimyoviy, estetik xususiyatlarini va rang hosil bo'lish ko'rsatkichlarini aniqlash;

"gematit konsentratini-defekat" ikkilamchi sistemasining fazaviy o'zaro munosabat va rang o'zgarish diagrammalarini qurish;

sintez qilingan shpinel strukturali keramik pigmentning funksional hamda rang xususiyatlarini aniqlash va ulardan keramik koshinlar uchun glazur tarkibida foydalanish orqali dissertatsiya ishi natijalarini aprotatsiyadan o'tkazish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida mahalliy xomashyo komponentlari – kimyoviy reaktivlar, Qiziltosh koni gematiti, "Xorazm shakar" AJ ishlab chiqarish chiqindisi "defekat", sintez qilingan keramik pigment va ular asosida glazurlangan koshin namunalari olingan.

Tadqiqotning predmeti shpinel strukturali CaFe_2O_4 kristall fazalari hosil bo'lishini va fazaviy o'tish jarayonlarini hamda keramik pigmentlar fizik-kimyoviy va optik xossalari kuydirish haroratiga va sintez sharoitiga funksional bog'liqligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullari (minerologik, rentgenospektral, rentgenofazali, differensial-

termik, IQ-spektroskopik, elektron mikroskopik) hamda keramika va zol-gel texnologiyalarining an'anaviy usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kalsiy va temir nitratlari hamda gematit konsentrati va defekat asosida keramik pigmentlarni zol-gel va qattiq fazali sintez qilishda 600-1100 °C kuydirish harorat oralig'ida CaFe_2O_4 kristall strukturasi hosil bo'lish jarayon qonuniyatlarini, ularning kinetikasi va mexanizmiga funksional bog'liqliklari asoslangan;

gematit rudasini yuvish va magnitli ajratishni o'z ichiga olgan boyitish usullarini qo'llash yordamida olingan konsentrat tarkibidagi Fe_2O_3 miqdorini 60,52 mas.% dan 95,67 mas.% gacha oshirish imkoniyati aniqlangan;

zol-gel va qattiq fazali usullar orqali shpinel strukturali keramik pigmentlarni sintez qilishdagi harorat o'zgarishining "tarkib-struktura-disperslik-xossa" funksional bog'liqligi ilmiy asoslangan;

"gematit konsentrati-defekat" sistemasida qattiq fazali usul orqali shpinel strukturali keramik pigment sintez qilishda kuydirish haroratini 1000 °C va 8 soat ushlab turish vaqtida, hamda 3 mas.% miqdorida B_2O_3 qo'shilganda esa 4 soat ushlab turish vaqtida to'q qizil rangning to'liq hosil bo'lishi aniqlangan;

"gematit konsentrati-defekat" ikkilamchi sistemasining fazaviy o'zaro munosabat va rang o'zgarish diagrammalari qurilgan hamda 900-1600°C haroratda termik ishlov berishda $\text{CaO}\cdot 2\text{Fe}_2\text{O}_3$, $\text{CaO}\cdot\text{Fe}_2\text{O}_3$, $2\text{CaO}\cdot\text{Fe}_2\text{O}_3$ birikmalarining kristall fazalari strukturalarining shakllanish qonuniyatlariga bog'liq holda rang hosil bo'lish sohalari aniqlangan;

sintez qilingan shpinel strukturali keramik pigmentlarni turli maqsadlardagi keramik materiallar uchun glazur tarkibida foydalanish imkoniyatlari asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

boyitish usullarini tanlash natijasida Qiziltosh gematit rudasi tarkibida Fe_2O_3 miqdori 60,52 mas.% dan 95,67 mas.% gacha oshirilgan va gematit konsentrati olingan;

mahalliy xomashyo komponentlaridan, jumladan gematit konsentrati va defekatdan foydalanib, shpinel strukturali qizil rangli keramik pigmentlarning import o'rnini bosuvchi tarkiblari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan natijalar, zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullari va keramik pigmentlar olish texnologiyasining an'anaviy tadqiqot usullari natijalari, hamda yangi tarkibdagi keramik pigmentlarni ishlab chiqarish sharoitida tajriba sinovlaridan o'tkazilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati "gematit konsentrati - defekat" sistemasidagi fazaviy o'tish jarayonlari, shpinel strukturali yangi keramik pigmentlarni zol-gel va qattiq fazali usullar orqali sintez qilishda CaFe_2O_4 kristall strukturalarining shakllanishi, rang hosil qilish va fazaviy o'zaro munosabat diagrammalarini qurish, shuningdek, "tarkib-struktura-disperslik-xossa" funksional bog'liqligining sintez haroratining ta'sirida o'zgarishini aniqlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mahalliy tabiiy xomashyo va chiqindi asosida talab darajasidagi, import o'rnini bosuvchi termik barqaror, shpinel strukturali keramik pigmentlarning resurs tejankor tarkiblarini, hamda ularni past haroratda olish texnologiyasini ishlab chiqish bilan asoslanadi,

shuningdek, Respublikada ekologik holatni yaxshilash orqali xomashyo bazasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Shpinel strukturali keramik pigmentlarni mahalliy xomashyo va chiqindilar asosida sintez qilish, xossa va xususiyatlari tadqiq etish bo'yicha olingan ilmiy natijalarga asoslanib:

mahalliy tabiiy xomashyo va chiqindilardan foydalanib, yangi retsepturadagi keramik pigmentlar sintez qilish jarayonida zol-gel va qattiq fazali reaksiyalarini tadqiq etish orqali olingan natijalar "Qurilish va texnik maqsadlarda foydalaniladigan funksional va silikat materiallarning energiya va resurstejamkor tarkib va texnologiyalarini ishlab chiqish" (2020-2024yy.) byudjet mavzusi bo'yicha tadqiqotlarni bajarishda qo'llanma material sifatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2025 yil 12 maydagi 4/1255-1155-son ma'lumotnomasi). Natijada, keramik pigmentlar sintezi, fazaviy o'tish jarayonlari, xossalari va funksional xususiyatlari bo'yicha ilmiy asoslangan fundamental ma'lumotlar olish imkonini bergan;

glazurlangan keramik koshinlar olish uchun gematit va defekat asosida sintez qilingan shpinel strukturali keramik pigment tarkibi "ART GLOSS GALLERY" QK ning "2026-2027 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yhati"ga kiritilgan ("ART GLOSS GALLERY" QKning 2025-yil 15-apreldagi 10/II 2025 -5 - son ma'lumotnomasi). Natijada talab darajasidagi import o'rnini bosuvchi keramik pigmentlar olish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyasining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 1 ta Scopus ma'lumotlar bazasidagi, 3 ta xorijiy va 2 ta respublika ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 113 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusi, o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari O'zbekiston Respublikasi rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Keramik pigmentlar sintezining hozirgi holati va rivojlanish istiqbollari. Sintez usullari, xossalari va strukturalari**" deb nomlangan birinchi bobida so'nggi yillarda nashr etilgan ilmiy-texnik adabiyotlar va elektron manbalarda keramik pigmentlar sintezi, sintez qilishning an'anaviy va noan'anaviy usullari, shuningdek, ularni ishlab chiqarishda mineral xomashyo va ikkilamchi resurslardan foydalanishning zamonaviy tendensiyalari va hozirgi holati bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarni tanqidiy tahlil qilish natijalari keltirilgan.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda zol-gel kabi noan'anaviy va zamonaviy usullar yordamida sintez qilinadigan shpinel strukturali keramik pigmentlar sinteziga oid yetarlicha to'liq va tizimli ma'lumotlarning cheklanganligi ushbu yo'nalishda chuqurroq tadqiqotlar olib borish zarurligini ko'rsatadi. Natijada mavjud adabiyotlarni tanqidiy tahlil qilish natijasida tadqiqotning asosiy maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Xomashyo komponentlarini kompleks tadqiq qilish, tadqiqot usullari va jixozlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida keramik pigmentlar sintez jarayoni, fizik-kimyoviy tadqiq qilishning zamonaviy tadqiqot usullari, keramik pigmentlar omuxta tarkiblarini tuzish uchun ishlatiladigan dastlabki komponentlarning xususiyatlari, ya'ni kimyoviy reagentlar hamda tabiiy mineral va ikkilamchi xomashyo komponentlaridan, xususan Jizzax viloyatidagi Qiziltosh koni gematiti, “Xorazm shakar” Ajning shakar ishlab chiqarishdagi chiqindisi - defekatlarning fizik-kimyoviy xossalari, shuningdek ular asosida pigmentlarni zol-gel va qattiq fazali sintez qilish jarayonlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Sintez jarayonlari uchun asosiy komponentlar sifatida kimyoviy toza reaktivlar (CaCO_3 , Fe_2O_3 , B_2O_3 , $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$, $\text{Fe}(\text{NO}_3)_3 \cdot 9\text{H}_2\text{O}$, $\text{C}_6\text{H}_8\text{O}_7$), shuningdek, gematit va defekat tanlab olingan. Kimyoviy-analitik tahlil natijalari orqali gematit tarkibida temir (III) oksidi (Fe_2O_3) ning miqdori 57,90 mas. % ni (1-jadval), defekat tarkibida CaO miqdori 52,25 mas. % dan kam emasligi aniqlangan va bu natijalar rentgenfazali tahlil natijalari (1-rasm) bilan ham tasdiqlangan.

1-Jadval

Foydalanilgan xomashyo va chiqindining kimyoviy tarkibi

Namunalar nomi	Oksidlar miqdori, mas.,%									KY, mas.,%
	SiO_2	Al_2O_3	Fe_2O_3	MnO	MgO	CaO	CuO	ZrO_2	P_2O_5	
Gematit	22,99	2,80	57,90	0,12	3,25	6,30	0,09	0,46	0,13	5,96
Defekat	0,47	0,56	0,67	-	0,52	52,25	-	-	0,06	45,23

Rentgenfazali tahlil natijalari gematit tarkibida asosan gematit, maggemit, magnetit va kvars, suningdek, gematit tarkibida oz miqdorda kalsit va xlorit mineralari mavjudligi aniqlangan. Defekatning mineralogik tarkibi esa asosan kalsit mineralidan iborat ekanligi aniqlangan.








1-Rasm.
Qiziltosh koni
gematiti
namunasining
rentgenogrammasi

Dissertatsiyaning **“Shpinel strukturali pigmentlar sintezi, fizik kimyoviy xossalari, struktura hosil bo'lish kinetikasi va mexanizmi. Keramik**


pigmentlar olish uchun qiziltosh gematitini boyitish” deb nomlangan uchinchi bobida shpinel strukturali keramik pigmentlarni sintez qilish uchun zol-gel va qattiq fazali sintez usullaridan foydalanish imkoniyatlari asoslangan va sintez jarayonida termik ishlov berishda CaFe_2O_4 kristall fazasi hosil bo‘lish kinetikasi, strukturaviy o‘zgarish qonuniyatlari va mexanizmlari tadqiq qilish, shuningdek, shpinel strukturali keramik pigmentlarni qattiq fazali sintez qilish uchun defekat chiqindisini va Qiziltosh gematiti boyitilgan konsentratini ishlatish imkoniyati, konsentrat olishda gematitni boyitish usullarini tanlash, hamda qattiq fazali sintez usuli orqali «gematit konsentrat-defekat» sistemasida pigmentlarning struktura hosil bo‘lish kinetikasi va mexanizmlari bo‘yicha olingan natijalar keltirilgan.

Shpinel strukturali keramik pigment sintez qilish uchun temir va kalsiyning nitratli tuzlari ($\text{Fe}(\text{NO}_3)_3 \cdot 9\text{H}_2\text{O}$, $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2 \cdot 4\text{H}_2\text{O}$), xelatlovchi komponent sifatida limon kislota monogidрати va kimyoviy muhitni nazorat qilish uchun 30 % konsentratsiyali NH_4OH eritmasidan foydalanilgan. Barcha kimyoviy moddalar analitik tozalikka ega va qo‘shimcha tozalashsiz ishlatilgan.

Sintez qilish jarayoni quyidagi reaksiyalar bilan boradi:



Olingan kserogel namunasi amorf holatda ekanligi rentgenfazali tahlil orqali aniqlangan. Sintez qilingan kserogel namunalarining harorat ta’sirida CaFe_2O_4 kristall fazalarini hosil bo‘lish maqbul sharoitlarini, oraliq fazaviy o‘zgarishlarini tadqiq qilish uchun 600-1100°C haroratlarda 2 soat ushlab turish vaqti bilan kuydirilgan va 2-rasmda tajribaviy namunalarni rentgenfazali tahlili keltirilgan.




2- Rasm.
600-1100 °C haroratlarda
2 soat ushlab turish vaqti
bilan kuydirilgan kserogel
namunalarining
rentgenogrammalari

Kalsiy va temir nitratlari asosida sintez qilingan kserogel namunalarining turli haroratlarda kuydirilgan namunalarining rentgenfazali tahlil natijalari 600 °C da CaFe_2O_4 kristall fazalari hosil bo‘lishi boshlanishini ko‘rsatdi. Kuydirish haroratini 800°C gacha oshirilganda CaFe_2O_4 ga tegishli difraksiya maksimumlari intensivliklari biroz oshgani, kuydirish harorati 1000°C yetganda esa kristallanish jadallik bilan o‘sib difraksiya maksimumlari sinish burchaklari qisqarib,

intensivliklari maksimumga yetgani kuzatildi. Kuydirish haroratni 1100 °C ga oshirilganda difraksiya maksimumlari ($d=0,462; 0,369; 0,350; 0,267; 0,252; 0,235; 0,224; 0,213; 0,201; 0,183; 0,154; 0,151; 0,146$) intensivligi va miqdori o'zgarmaganligi aniqlandi, bu esa CaFe_2O_4 kristall fazasi to'liq hosil bo'lishi uchun 1000°C kuydirish harorati yetarli ekanligini anglatadi. CaFe_2O_4 difraksiya maksimumlari intensivliklari halqaro kristallografiya rentgendifraksiya bazasi kartoteka raqami (ICDD PDF-2 №00-032-0168) bilan solishtirildi va barcha difraksiya maksimumlari sintez qilingan namunani bilan bir hil ekanligi aniqlandi.


Turli haroratlarda 2 soat ushlab turish vaqti bilan kuydirilgan kserogel namunalarining IQ spektroskopik tahlil qilindi (3- rasm).



3-Rasm.
600-1100 °C haroratlarda
2 soat ushlab turish vaqti
bilan kuydirilgan kserogel
namunalarining IQ
spetrogrammalari

600 °C da 1423 cm^{-1} va 875 cm^{-1} da aniqlangan yutilish chiziqlari karbonat guruhlarining (CO_3^{2-}) assimetrik va deformatsion tebranishlariga mos kelishi, bu esa CaCO_3 qoldiqlari to'liq parchalanmaganligini isbotladi. Harorat oshishi bilan ushbu chiziqlar intensivligi kamayib, 1000 °C da deyarli yo'qoldi, bu karbonatlarning termik parchalanib yo'qolganini ko'rsatdi. 1094 cm^{-1} dagi tebranishlar chastotasi 800 °C da paydo bo'lib, 1000 °C da kuchaydi, bu esa CaFe_2O_4 strukturasiidagi Fe–O bog'lanishlari bilan bog'liq panjara ichki tebranishlarini ifodalaydi. Shuningdek, 711, 641, 569 va 435 cm^{-1} sohalaridagi yutilish chiziqlari Ca–O, Fe–O bog'lanishlarining assimetrik va deformatsion tebranishlariga mos kelib, CaFe_2O_4 strukturasiining shakllanishini ko'rsatdi. Ayniqsa, 1000 °C da bu chiziqlarning intensivligi ortib, kristallik darajasi yuqori bo'lgan CaFe_2O_4 fazasi to'liq shakllanganini tasdiqladi.

DSK-TG, Rentgenfazali va IQ-spektroskopik tahlillar quyidagi reaksiyalarni tasdiqladi. Reaksiyada kalsiy sitratini kalsiy oksidgacha parchalanishi va temir oksidi bilan reaksiyaga kirishishi natijasida CaFe_2O_4 hosil bo'lishi reaksiyasi ketma ketligi keltirilgan:



Turli haroratlarda 2 soat ushlab turish vaqti bilan kuydirilgan kserogel namunalarining tasvirlari 4-rasmda keltirilgan.



4-Rasm.
600-1100 °C haroratlarda
2 soat ushlab turish vaqti bilan
kuydirilgan kserogel
namunalarining tasvirlari

Keltirilgan tasvirlardan 1000°C haroratda kuydirilgan namunada to‘yingan qizil rangli pigment hosil bo‘lganligi, 1100°C haroratda esa pigment rangi biroz jigarrang tusga qarab o‘zgarishi aniqlangan. Kalsiy va temir nitratlari asosida sintez qilingan va turli haroratlarda kuydirilgan kserogel namunalarini rangi va fizik-kimyoviy tahlil natijalari asosida CaFe_2O_4 strukturali pigment sintez qilishda 2 soat ushlab turish vaqti bilan 1000°C kuydirish harorati eng yahshi natijani ko‘rsatgan.

Zol-gel usulida CaFe_2O_4 pigmentlar sintez qilinib, ularning struktura hosil bo‘lish jarayoni tadqiq etildi. Keyingi bosqichda esa qattiq fazali sintez usuli orqali toza reaktivlarni tannarhi arzon tabiiy xomashyo va chiqindilarga almashtirib shpinel strukturali keramik pigment sintez qilish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Buning uchun temir va kalsiy tarkibli komponentlar o‘rniga Qiziltosh koni gematitini boyitish orqali olingan konsentrat va defekat ishlatilgan.

Tadqiqotlar natijasida gematit tarkibida SiO_2 , CaO va Al_2O_3 mavjudligi CaFe_2O_4 tarkibli pigment xossalariga ta’sir qilishi aniqlangan. Shuning uchun gematit xomashyosini boyitib, tarkibida temir oksidi miqdorini toza reaktiv darajasigacha oshirish va qo‘shimchalardan tozalash uchun mexanik, ya’ni yuvish va magnitli separetsiya usullari qo‘llanilgan. 2-jadvalda yuvilgan va magnitli separetsiya qilingan gematit namunalarini kimyoviy tahlil natijalari keltirilgan.

2-Jadval


Qiziltosh koni gematiti namunalarining kimyoviy tarkibi

Namunalar nomi	Oksidlar miqdori, mas.,%									KY, mas.,%
	SiO_2	Al_2O_3	Fe_2O_3	MnO	MgO	CaO	CuO	ZrO_2	P_2O_5	
Tozalanmagan	22,99	2,80	57,90	0,12	3,25	6,30	0,09	0,46	0,13	5,96
Yuvilgan	17,74	0,11	70,69	0,13	0,68	5,78	0,10	0,50	0,14	4,13
Magnitli separetsiya qilingan	2,38	0,08	95,78	0,04	0,12	1,26	0,03	0,06	0,01	0,24

Gematit konsentrati olish uchun dastlabki bosqich - yuvib boyitish jarayonidan keyin gematit tarkibida SiO_2 , Al_2O_3 , MgO va CaO miqdorlari kamayib, Fe_2O_3 ulushi 57,90 mas. % dan 70,69 mas. % gacha oshgan. Keyingi bosqichda magnit separatsiyali boyitishdan keyin esa Fe_2O_3 miqdori 95,78 mas. % gacha oshib, toza reaktiv darajasiga yaqinlashgan. Ikki bosqichli boyitish natijasida asosiy qo‘shimcha oksidlar minimal darajaga tushgan.

Boyitishning har bir bosqichidan so‘ng boyitilgan namunalarni rentgenfazali tahlil qilingan va tahlil natijalariga ko‘ra, yuvib boyitilgan namunada xlorit mineraliga tegishli difraksiya maksimumlari butunlay yo‘qolib, kvars, kalsit va dolomitlarning intensivligi kamayganligi, gematit, maggemit va magnetit minerallariga tegishli difraksiya maksimumlari esa ortganligi aniqlangan.

Shuningdek, yuvilgan gematitning turli magnit induksiya kuchi ta‘sirida ajratib olingan namunalarni rentgenfazali tahlil qilingan (5-rasm).




5-Rasm.
Yuvilgan gematitning turli magnit induksiya kuchi ta‘sirida ajratib olingan namunalarning rentgenogrammalari
a) yuvilgan b) 0,25 T
c) 0,35 T d) 1 T

Rentgenfazali tahlillarga ko‘ra, 0,25 T magnit induksiyada ajratilgan namunada asosan magnetit, kamroq maggemit va qisman gematit fazalari aniqlangan. Magnit induksiya kuchi 0,35 T gacha oshirilganda magnetit va ayniqsa maggemit mineraliga tegishli difraksiya maksimumlari miqdori va intensivligi oshgani kuzatilgan. Induksiya kuchi 1 T ga yetganda esa magnetit va maggemit minerallari difraksiya maksimumlaridan tashqari, gematit mineraliga tegishli maksimumlar miqdori oshganligi aniqlangan. Bu esa gematitning paramagnit xossasi tufayli uni yuqori magnit induksiyada qisman ajratish mumkinligini ko‘rsatgan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, gematitni yuvish va magnetli separatsiya orqali boyitish natijasida gilli, karbonatli va boshqa aralashmalar kamayib, Fe_2O_3 miqdori sezilarli darajada ortgan. Magnetli separatsiya jarayonida magnit induksiya kuchini bosqichma-bosqich oshirish orqali avval ferromagnit xossaga ega magnetit, maggemit minerallari, so‘ngra yuqori induksiya sharoitida paramagnit gematit minerali qisman ajratilgan, natijada toza reaktiv darajasidagi Fe_2O_3 ga boy gematit konsentrati olingan va uni CaFe_2O_4 tarkibli pigment sintezi uchun istiqbolli xomashyo ekanligi isbotlangan.


Tadqiqotning keyingi bosqichida boyutilgan gematit konsentri va defekat asosida qattiq fazali sintez usulida shpinel strukturali pigment olish bo'yicha tadqiqot olib borilgan. Shuningdek, tadqiqotda sintez qilish jarayonida kuydirish haroratlarini va izotermik ushlab turish vaqtini kristall faza hosil bo'lish kinetikasi va mexanizmlariga, oraliq oksidli birikmalarning shakllanish ketma-ketligiga, pigmentning kristallik darajasiga va rang barqarorligiga ta'siri aniqlangan. 6-rasmda 600-1000 °C harorat oralig'ida 8 soat ushlab turish vaqti bilan gematit konsentri va defekat asosida kuydirilgan tajribaviy pigment namunalarning rentgenofazali tahlili keltirilgan.



6-rasm.
Turli haroratlarda 8 soat ushlab turish vaqti bilan kuydirilgan pigment namunalarning rentgenogrammalari:
a) 600 °C, b) 800 °C, c) 1000 °C

Rentgenfazali tahlil natijalari 600 °C haroratda kuydirishda CaFe₂O₄ kristall fazalariga tegishli difraksiya maksimumlari oz miqdorda va intensivligi juda past ekanligini, haroratini 800°C gacha oshirilganda intensivlik biroz oshgani, α-Fe₂O₃ ga tegishli difraksiya maksimumlari esa yetarlicha kamaygani, harorat 1000°C ga yetganda esa kristallanish jadallik bilan o'sib, CaFe₂O₄ ga tegishli difraksiya kattaliklari intensivliklari maksimumga yetgani aniqlangan. Shuningdek kuydirilgan namunalarning rang o'zgarishlari hamda rentgenfazali tahlil natijalari asosida fizik-kimyoviy xossalari aniqlangan. Kuydirish harorati oshishi bilan elementar katak parametrlari asta-sekin kamayib borgan, bu esa panjaraning zichlashuviga va tartiblangan kristall strukturaning shakllanishiga olib kelgan.

Zol-gel usulida CaFe₂O₄ strukturali keramik pigment sintez qilishda 1000°C harorat va 2 soatlik ushlab turish vaqti yetarli ekanligi aniqlangan. Shundan kelib chiqib, zol-gel va qattiq fazali usullardan foydalanib keramik pigment sintez qilishda namunalarni CaFe₂O₄ kristall fazasining hosil bo'lish miqdori va kristallit o'lchamining 2 soat ushlab turish vaqtida kuydirish haroratiga bog'liqligi aniqlangan. Olingan natijalar solishtirma grafik shaklida 7-rasmda keltirilgan.



7-Rasm.
Zol-gel va qattiq fazali usullarda sintez qilishda CaFe₂O₄ kristall fazasining hosil bo'lish miqdori va kristallit o'lchamining kuydirish haroratiga bog'liqlik grafi

Solishtirma grafik ma'lumotlari zol-gel usuli orqali sintez qilingan kserogelni 2 soat izotermik ushlab turish orqali kuydirishda CaFe₂O₄ ning kristall fazasini

qattiq fazali sintezga nisbatan ancha tez va to'liq hosil qilishi aniqlangan. 600 °C haroratda kristall faza miqdori zol-gel usulda sintez qilingan namunada 10 % atrofida, qattiq fazali sintez usulda ushbu mineralga tegishli hech qanday faza hosil bo'lmasligi aniqlangan. Zol-gel usulida sintez qilishda kristall faza to'liq hosil bo'lishi uchun 1000 °C kuydirish harorati yetarli bo'lsa, qattiq fazali usulda esa kristall faza miqdori 58 % atrofida bo'lishi aniqlangan. Ushbu haroratda kuydirilgan namunalarning kristallit o'lchami zol-gel usulda sintez qilingan namunadan ancha kichik ya'ni 26 nm, qattiq fazali sintezda esa ancha yirikligi (77 nm) aniqlangan.

Gematit konsentrati va defekat asosidagi pigment tarkibini turli haroratlarda 8 soat kuydirilib, rang o'zgarishi va rentgenfazali tahlil natijalariga ko'ra kristall faza miqdori, elementar katak parametrlari hamda Debay–Sherrer tenglamasi bo'yicha kristallit o'lchami aniqlangan va natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-Jadval

Gematit konsentrati va defekat kompozitsiyasi asosidagi pigment tarkibini 1000°C haroratda turli ushlab turish vaqtlari bilan kuydirilgandagi fizik-kimyoviy parametrlari

Ushlab turish vaqti, soat	Mineral formulasi	Kristall faza miqdori, %	Hisoblangan kristallit o'lchami, nm	Elementar katak parametri, Å	Namuna ranggi
2	CaFe ₂ O ₄	32	55,28	a = 9,2459 b = 10,7184 c = 3,0374	
	α-Fe ₂ O ₃	17	57,31	5,0318 13,7227	
4	CaFe ₂ O ₄	53	63,21	a = 9,2431 b = 10,7157 c = 3,0248	
	α-Fe ₂ O ₃	11	64,09	5,0299 13,7203	
6	CaFe ₂ O ₄	76	69,13	a = 9,2405 b = 10,7135 c = 3,0223	
	α-Fe ₂ O ₃	6	70,01	5,0276 13,7181	
8	CaFe ₂ O ₄	98	74,11	a = 9,2384 b = 10,7011 c = 3,0208	
	α-Fe ₂ O ₃	2	76,24	5,0249 13,7163	
10	CaFe ₂ O ₄	100	81,34	a = 9,2371 b = 10,6988 c = 3,0195	
	α-Fe ₂ O ₃	-	-	-	


